

BACHADON BO'YNI EROZIYASI KELIB CHIQISH SABABLARI

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi

24-34-guruh talabasi

Sultonbekova Ruxshona Xushnudbek qizi

+998949490211 *Davronovhushnut@gmail.com*

Annotatsiya: Bachadon bo'yni eroziyasi — ayollarda keng tarqalgan kasallik bo'lib, u bachadon bo'yni epiteliysining silliqligi va yaxlitligini buzilishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu maqola bachadon bo'yni eroziyasining sabablari, turlari, diagnostika usullari, davolash yo'llari va profilaktik choralar haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada bemorlar uchun xavfsizlik va kasallikning oldini olish uchun e'tiborga qaratilishi lozim bo'lgan profilaktika choralariga ham alohida urg'u berilgan. Bachadon bo'yni eroziyasi ayollarda reproduktiv salomatlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shu bois uni erta aniqlash va davolash muhim hisoblanadi. Ushbu maqola tibbiyot mutaxassislari va umumiy o'quvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki unda kasallikning klinik belgilari, zamonaviy davolash usullari va zamonaviy tibbiyotdagi yutuqlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bachadon bo'yni eroziyasi, bachadon epiteliysi, diagnostika, davolash usullari, profilaktika, reproduktiv salomatlik, ayollar kasalliklari, kolposkopiya, krioterapiya, lazer terapiya

Abstract: Cervical erosion (cervical ectopy) is a common condition affecting many women, characterized by the disruption of the smooth and intact epithelial lining of the cervix. This article provides an in-depth overview of the causes, types, diagnostic methods, treatment options, and preventive measures for cervical erosion. Early detection and treatment are crucial as untreated cervical erosion may impact reproductive health and can lead to more serious conditions, such as cervical cancer. The article also discusses modern advancements in the diagnosis and management of this condition, offering valuable insights for both healthcare professionals and the general public. The prevention strategies outlined aim to reduce the risk of recurrence and complications, enhancing overall women's health and well-being.

Keywords: cervical erosion, cervical epithelium, diagnosis, treatment methods, prevention, reproductive health, gynecological diseases, colposcopy, cryotherapy, laser therapy.

Bachadon bo'yni eroziyasi (servikal eroziya) ayollarda tez-tez uchraydigan kasallik bo'lib, asosan bachadon bo'yni epiteliysi zararlanishi yoki shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik ayollarning hayot sifatiga va reproduktiv salomatligiga

salbiy ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, bachadon bo'yni eroziyasi bilan kasallangan ayollarda boshqa jiddiy patologiyalar, jumladan, bachadon bo'yni saratoni rivojlanishi xavfi ortadi. Bachadon bo'yni eroziyasining asosiy sabablari orasida gormonal o'zgarishlar, yallig'lanish jarayonlari,

shikastlanishlar, infektsiyalar, spirtli ichimliklarni o'z ichiga olgan gigiena vositalar foydalanish, shuningdek, agressiv mahalliy kontratseptiv vositalardan foydalanish kiradi. Haqiqiy eroziya ko'pincha surunkali endoservitsit fonida paydo bo'ladi.[1]



Ginekologlar qabulida deyarli har ikkinchi bemorga bachadon bo'yni eroziyasi tashxisi qo'yiladi. Umuman olganda, bu kasallik bola tug'ish yoshidagi ayollarda eng tez-tez uchraydigan patologiyalardan biri hisoblanadi. Bachadon bo'yni eroziyasi (endoservikoz, bachadon bo'yni ektopiyasi) — uning vaginal qismidagi shilliq qavatining yaxlitligi buzilishi, defekti yoki yaralar bilan qoplanishidir. Eroziya bachadon va uning ortiqlariga infektsiya kirishiga yo'l ochadi va kichik tosning surunkali yallig'lanishi kasalliklarini

rivojlanishiga sabab bo'ladi, hatto bepushtlikka olib kelishi ham mumkin. Bachadon eroziyasining eng xavfli asorati, shuki uning yomon sifatli o'simtaga aylanishidir. Shuning uchun bu kasallikni imkon qadar tezroq aniqlash juda muhim ahamiyatga egadir.

Bachadon bo'yni kelib chiqish sabablari quyidagilardir:

1. Gormonal buzilishlar va immunitetning pasayishi, hayz siklining buzilishlari;

2. Jinsiy hayotning juda erta boshlanishi, shuningdek, erta homiladorlik va tug'ruq;
3. Jinsiy hamrohlarning tez-tez o'zgarishi;
4. Qoniqarsiz shaxsiy gigiena;
5. Og'ir tug'ruq, abort va boshqa tibbiy manipulyatsiya natijasidagi mexanik jarohatlar;
6. Vaginal kontratseptivlarni noto'g'ri ishlatish yoki noto'g'ri chayish, juda qo'pol jinsiy aloqa tufayli;
7. Siyidik-tanosil tizimining yallig'lanish va infektsion kasalliklari, shu jumladan ularni kech va noto'g'ri davolash;
8. Bakterial va virusli kasalliklar. [1]*Bachadon bo'yni eroziyasi ikki asosiy turga bo'linadi:*
 - qayta tiklanadigan (yuza) eroziya: epiteliyning sirt qismini qamrab oladi va oddiy shifobaxsh vositalar yordamida davolanishi mumkin.
 - surunkali eroziya: bu holatda epiteliyning chuqur qatlamlari zararlanadi, shuningdek, bachadon bo'yni saratoni xavfini oshiradi.

Bulardan tashqari chin, psevdoeroziya va tug'ma. Chin eroziya deyilganda aynan o'sha ginekologik tekshiruvlarda bosilganida qonaydigan yorqin qizil dog' tushuniladi. Bunday eroziya shunisi bilan xavfliki, zararlangan hududlarda yiring paydo bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, chin eroziya ikki hafta davom etadi, keyin u biriktiruvchi to'qima bilan qoplanadi va psevdoeroziyaga aylanadi.

Bachadon bo'ynining psevdoeroziyasi — bu diametri 5 mm ga teng bo'lган dumaloq qizil hududni nazarda tutadi, uning ustida ham yiring hosil bo'lishi mumkin, ayniqsa, kasallik uzoq vaqtadan beri davom etayotgan bo'lsa, ko'pchilik hollarda esa aynan shunday bo'ladi.

Psevdoeroziya qonida ayol gormonlari yuqori bo'lган qizlar uchun xosdir va bachadon bo'yni kanali chegarasidan tashqariga chiqib ketishi mumkin. Psevdoeroziyaning xavfi uning yomon sifatli shaklga aylanishi mumkinligi bilan bog'liq.

Ba'zan, yosh yoki o'smir qizlarni ko'rikdan o'tkazayotganda, ginekolog bachadon bo'ynida silindrik epiteliya siljishini aniqlaydi, kolposkopiyyada esa uni yorqin qizil rangga

bo'yaganini ko'rish mumkin. Bu, tug'ma eroziya deb ataladi va uni davolashga hojat yo'q, chunki amalda u hech qachon onkologik kasallikka aylanmaydi.[2]

Bachadon bo'yni eroziyasi alomatlari quyidagilar hisoblanadi:

Bachadon bo'yni eroziyasi bilan bog'liq vaziyat bu kasallikning aniq belgilari yo'qligi va ko'p hollarda o'zini umuman namoyon qilmasligi bilan ham murakka kasallik hisoblanadi. Bu kasallikning asosiy belgilari :

- Menstruatsiyalar orasida qonli, ba'zida esa yiringli ajralmalar ajralishi, masalan jinsiy aloqadan keyin ham sodir bo'lishi mumkin;
- Qindan yoqimsiz hidli ajralmalarning kelishi;
- Ko'proq qon kelishli va uzoq muddatli menstruatsiya sikli;
- Siyidik chiqarish yoki jinsiy aloqa paytida qorinning pastki qismidagi og'riqlar paydo bo'lishi.

Bemorni tekshirish vaqtida ginekolog dastlab bachadon bo'ynini ko'zgular yordamida tekshiradi hamda, uning shilliq qavatida ginekologik asbob bilan aloqa qilganda qondaydigan, sog'lom to'qimalar fonidagi yorqin qizil rangli dog' ko'rinishdagi epiteliy nuqsonlari aniqlanishi mumkin. Ammo har qanday holatda, shuningdek kolposkopiya ham amalga oshiriladi va onkologik kasalliklarni istisno qilish uchun eroziya yuzasidan surtma olinadi va tahlil qilinadi. Bachadon bo'ynini tasvirni 25-32 marta oshiradigan optik asbob bilan tekshirish mutlaqo og'riqsizdir.

Bachadon bo'yni eroziyasini davolash

Bu kasallkni davolash majburiy hisoblanadi, chunki bu kasallikni e'tiborsiz qoldirish yomon yoki yaxshi sifatli o'smalar, shuningdek, kasallikning og'ir shakllari rivojlanishiga olib keladi. Kasallikni operatsiyasiz davolash ham samarali bo'lishi mumkin, bunda

muayyan usul kasallikning og'irlilik darajasi, kattaligi, shiakstlanish tuzilishi va birgalikda kechayotgan kasalliklar mavjudligiga qarab tanlanadi. Eroziyani davolashning bir bo'lagi

sifatida bemorlarga yallig'lanishga qarshi va gormonal, shuningdek antibakterial va antivirus preparatlar, jumladan, mahalliy ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar buyuriladi. Yordamchi davolash sifatida odatda immunitetni oshiruvchi va umumiy mustahkamlovchi vositalar belgilanadi. Agar patologiya erta bosqichda aniqlansa, u jarrohlik usullaridan foydalanmasdan ham butunlay davolanishi mumkin.

Bachadon bo'yni eroziyasini davolash shilliq qavatning yaxlitligini tiklashga va infektsiya yoki malign o'sma kabi mumkin bo'lgan asoratlarni oldini olishga qaratilgan. Davolash usullari eroziv hududning hajmini, bemorning umumiyligi holatini va birga keladigan kasalliklarning mavjudligini hisobga olgan holda individual ravishda tanlanadi. Dorilar bilan ham davolashda Yallig'lanishga qarshi dorilar aniq yuqumli-yallig'lanish jarayoni mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Antibakterial, antiviral yoki antifungal vositalardan (metronidazol, flukonazol) foydalanish ko'rsatiladi.

Immunostimulyatorlar umumiyligi va mahalliy immunitetni oshirish uchun ishlataladi, bu esa shikastlangan endoservikal shilliq qavatning tezroq tiklanishiga yordam beradi.

Mahalliy ravishda ginekolog to'qimalarning yangilanishini rag'batlantiradigan dori- darmonlarni buyuradi: malhamlar va shamlar (metiluratsil, dengiz itshumurt yog'i bilan süpozituar). Ular epitelizatsiya jarayonini tezlashtirish uchun ham qo'llaniladi.[1]

Jarrohlik. Mahalliy terapiya samarasiz bo'lса, eroziv joylarni jarrohlik yo'li bilan olib tashlash amalga oshiriladi. Barcha ayol ginekologlar minimal invaziv usullardan foydalanadilar. Eroziv to'qimalarning o'zgarishi uchun diatermokoagulyatsiya qo'llaniladi. Usul bachardon bo'yni eroziyasini elektr toki bilan kuydirishni o'z ichiga oladi. U kamdan- kam qo'llaniladi va uzoq tiklanish davrini talab qilishi mumkin. Jarayon zararlangan hududning keng nekroziga olib keladi, bu esa keyingi yangilanishni rag'batlantiradi. Usul samarali, ammo chandiq to'qimalarining shakllanishi xavfi tufayli ehtiyyotkorlik talab etiladi. Eroziyani yo'qotishning zamonaviy va eng yumshoq usuli - bu lazerdan foydalanish.

Atrofdagi to'qimalarning aniqligi va minimal shikastlanishi bilan ajralib turadi. Muzlatish patologik hujayralarning o'limiga olib keladi, shundan so'ng ular asta-sekin rad etiladi va normal to'qimalar tiklanadi. Kriyodestruksiya yuzaki eroziyalarni davolash uchun javob beradi.

Radioto'lqinli jarrohlik ham qo'llaniladi - patologik to'qimalarning koagulyatsiyasi va patologik epiteliyaga kontaktsiz ta'sir qilish uchun yuqori chastotali radio to'lqinlardan foydalanish. Bu shilliq qavatning minimal zararlanishi bilan to'qimalarning koagulyatsiyasiga erishish imkonini beradi.

Kimyoviy koagulyatsiyadan foydalanish mumkin. Turli xil kimyoviy moddalar patologik hujayralardagi oqsillarning katlanishiga olib keladi, bu ularning yo'q qilinishiga va keyinchalik sog'lom epiteliya bilan almashtirilishiga olib keladi. Usul kichik eroziyalar uchun afzalroq va diatermokoagulyatsiya bilan solishtirganda kamroq invazivdir.

Lazer terapiyasi eng samarali hisoblanadi. Bu patologik o'zgargan hujayralarni bug'lantirish (bug'lash) uchun mo'ljallangan yuqori intensiv lazer nuridan foydalanishga asoslangan. Bu usul atrofdagi sog'lom hujayralarga minimal zarar etkazgan holda yuqori aniqlikdagi to'qimalarni olib tashlash imkonini beradi.[2]

Bachardon bo'yni eroziyasini davolash patologik epiteliyni yo'q qilishga va sog'lom to'qimalarning yangilanishini rag'batlantirishga qaratilgan. Qayta tiklovchi va yallig'lanishga qarshi komponentlarni o'z ichiga olgan maxsus malhamlar, shamlar va tamponlardan foydalanish eroziyaning tabiiy davolanishiga yordam beradi. Mahalliy davolanishni minimal invaziv usullar bilan birlashtirish mumkin.

Shuningdek, ayolga muntazam ravishda ginekologik tekshiruvlar o'tkazish va qo'llaniladigan usullarning samaradorligini baholash uchun profilaktik kolposkopiya qilish tavsiya etiladi.

Eroziya takrorlanishi mumkin. Buni faqat qattiq tibbiy nazorat orqali kuzatish mumkin. Oldini olish reproduktiv tizimning sog'lig'ini saqlashga va eroziyaning paydo

bo'lishiga yordam beruvchi omillarning ta'sirini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

Bu kasallikni oldini olish uchun o'z navbatida sog'lom turmush tarzini saqlash ko'rsatiladi. Bu muvozanatli ovqatlanish, yomon odatlardan voz kechish (chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish) va muntazam jismoniy faoliyatni o'z ichiga oladi. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infektsiyalardan himoya qilish uchun kontratseptsiyaning to'siq usullaridan (prezervativ) foydalanish tavsiya etiladi. Onkogen shtammlar bilan infektsiyani oldini olish uchun HPV (papillomavirus) ga qarshi emlashni joriy qilish mumkin, bu ayollarda eroziyaning malignitesi sabablaridan biridir.[5]

Muntazam ginekologik tekshiruvlar zarur. Xavf ostida bo'lган ayollar patologik o'zgarishlarni erta aniqlash maqsadida servikal smear va kolposkopiyaning sitologik tekshiruvidan o'tadilar. Yallig'lanish kasalliklarini o'z vaqtida davolash ham endoserviksagi eroziv o'zgarishlarni oldini oladi. Servitsit, vaginit va boshqa yuqumli va yallig'lanish jarayonlarini etarli darajada davolash ektopiyaning oldini olishning asosiy usullaridan biridir.

Gormonal buzilishlarni kuzatish va tuzatish ko'rsatiladi. Agar kerak bo'lsa, ayolga endokrinolog bilan maslahatlashish va tegishli gormonal terapiyani o'tkazish tavsiya etiladi. Jinsiy organlarni to'g'ri parvarish qilish, ayniqsa vaginal infektsiyalarning kuchayishi davrida kuchli yallig'lanishni oldini oladi. Agressiv gigiena vositalaridan va ichki mikroflorani buzadigan va qo'ziqorin va boshqa tegishli kasalliklar xavfini oshiradigan dushdan ortiqcha foydalanishdan saqlanish tavsiya etiladi.[2]

Shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish va tasodifiy jinsiy aloqalardan qochish bilan doimiy jinsiy hamrohning mavjudligiga e'tibor berish kerak, ammo bu ayol sog'lig'ini saqlashning umumiyligi normalaridir. Bachadon bo'yni eroziyasini aniqlash va davolash uchun jiddiy

oqibatlarni kutmasdan, uni o'z vaqtida aniqlashga faqatgina har olti oyda bir marotaba ginekolog huzurida profilaktik tekshiruvlardan o'tish orqali erishish mumkin. Bu kasallikni oldini olishning asosiy chorasi. Kasallik aniqlanganda undan qo'rmaslik kerak, ayniqsa bugungi kunda shafqatli juda ko'p usullar mavjudligini hisobga olganda. Buning o'rniga, o'z vaqtida davolanmaslik oqibatlaridan ehtiyyot bo'lish kerak, chunki bu saraton kasalligining boshlanishiga qadar turli xil asoratlarga olib keladi. Bugungi kunda eroziya samarali davolanmoqda, shu sababli uni uy sharoitida mustaqil davolashga, xalq tabobati vositlarini qo'llashga hojat yo'q, ular bir ko'rinishda samara berishidek taassurot uyg'otsa ham, mavjud vaziyatni og'irlashtirib yuborishi mumkin.[4]

Xulosa

Bachadon bo'yni eroziyasi ayollar reproduktiv salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi jiddiy kasalliklardan biridir. Kasallikni erta aniqlash va davolash yordamida

xavflarni kamaytirish mumkin. Profilaktika choralariga rioya qilish va davolash usullaridan to‘g‘ri foydalanish kasallikdan himoyalanishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada keltirilgan diagnostika va davolash usullari bemorlar va tibbiyot mutaxassislari uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akilova, M. M., & Karimova, N. (2022). Ayollarda reproduktiv salomatlik va uning muammolari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Ismoilova, G. X. (2020). Ginekologiyada zamonaviy diagnostika va davolash usullari. Toshkent: Tibbiyot fanlari markazi.
3. Sattorov, O. T., & Rashidov, B. T. (2019). "Bachadon bo‘yni kasalliklarini diagnostika qilishning yangi yondashuvlari." O‘zbekiston tibbiyoti jurnali, 4(5), 35–42.
4. Ferlay, J., et al. (2020). Global cancer statistics 2020: GLOBOCAN estimates of incidence and mortality worldwide for 36 cancers in 185 countries. CA: A Cancer Journal for Clinicians, 70(6), 394–424.
5. Saldanha, G., & Nayar, R. (2017). "The Bethesda system for reporting cervical cytology: Definitions, criteria, and explanatory notes."